



Kasbiy psixologik tashxisning samarali metodlari

Maxmudova I. M

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Ilmiy rahbar p.f.n., dotsent **Dexkambayeva Z.A.**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya; Kasbiy psixologiyada tashhisning samarali metodlari kasbga yo'naltirishda hamda mehnat bozori sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola kasbga yo'naltirish, kasbga yo'naltirishda kasbiy psixologik tashxisning asosiy usullari haqida.

Kalit so'zlar: Kasbiy psixologik tashxis, Kasbga yo'naltirish, Professiogramma, Metod, Psixodagnostika.

KIRISH

Kasbiy psixologik tashxis-shaxsning kasbiy jihatdan mosligini, ishga layoqatliligini, mehnat faoliyatida samarali bo'lishi ehtimolini aniqlashga yo'naltirilgan psixologik bahlash jarayonidir. Ushbu tashxis usullari orqali shaxsning kuzatladigan xususiyatlari, test natijalari, intervyu javoblari va boshqa psixologik ko'rsatkichlar birlashtiriladi.

Professigrafiya:

Ushbu maqolada ko'rib chiqiladigan metodlardan biri bu professigrafiya bo'lib, 1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez sur'atlarda

kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu tadqiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati kasblar tasviri umuman olganda professiografiyani o'rganish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi. Professiografiya deganda kasblar va ularning bir - biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.





Professigrafiya - bu biror bir soha egasining shaxsiy hislatlariga, psixologik xqobiliyatlariga, psixologik va fiziologik imkoniyatlariga qo'yilgan talablarni o'rganish usullari. Professigrafiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatleri shuningdek, sog'lig'iga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emotsional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funktsiya guruhi bilan namoyon bo'ladi. Diagnostik professigrafiyalash quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

1. Faoliyat mazmuni: 1) Mehnat predmeti va masalalari. 2) Ish natijalari sifatiga qo'yiladigan talablar. 2. Mehnat qurollari: 1) Ish turi va tartibi. 2) Boshqarish organlari. 3) Ish joyini tashkil etish. 3. Mehnat sub'yektlarning faoliyati: 1) Harakat turlari va ularning tavsifi. 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri. 3) Kasb faoliyatiga xalaqit beruvchi omillar. 4) Mehnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi. 4. Mehnat sub'yektlarning faoliyati: 1) Ishchilarning o'zaro aloqalari tuzilmasi. 2) Ishni rejalashtirish va nazorat. 5. Kasbning mehnat sub'yekti shaxsiy psixologik va psixofiziologik sifatlariga qo'yiladigan talablar. 6. Mehnat sub'yekti faoliyatining past samaradorligi sabablarini tashxisi. 7. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy - eksperimental tekshiruv. Diagnostik professigrafiyalash empirik ma'lumotlarni yig'ish usullari orqali amalga oshiriladi. Prognostik professigrafiyalash kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni berish maqsadida qo'llaniladi.

Psixodiagnostika – bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ guruhning psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodikalar majmuini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon psixodiagnostikaning baholash ob'ekti bo'lishi mumkin.

Psixodiagnostika fanining nazariy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Psixik ko'rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan printsiptial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish;
2. Hozirgi paytda psixologik ko'rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik holatini o'rganish;

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik





kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi.

Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. o'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo», «q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar.

Xulosa

Kasbiy psixologik tashxis-turli metodlardan foydalanib, shaxsni ishga mosligini aniqlashga qaratilgan complex jarayonidir. Har bir metodning afzalliklari va cheklanishlari bor, shuning uchun baholash jarayonida bir nechta usullarni kombinatsiya qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Aripova N.A, Xolmamatova L.A, Qurbonova N.B. "Kasbiy psixologiya"- Toshkent: 2018. -140 b. , 142 b.
- 2) Narzullayeva M. Psixodiagnostik metodikalar bilan ishlashning samarali usullari // Ta'limning zamonaviy zamonaviy transformatsiyasi jurnali. -2024. -№7. - 192 b.
- 3) Tursunova Z. Pedagogik fanining ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish // Pedagog Respublika ilmiy jurnali. -2024. -№4. -452 b.

